


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOBLASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	
TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	199
O'sarov Abdulla Davronqulovich	
TASHQI SAVDO JARAYONLARINI BOSHQARISHDA "INTEGRATSIYALASHGAN TARIF" INTERAKTIV XIZMATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	207
Muzaffarov Azimjon Ashraf o'g'li	
"NAVOIY KMK" AJDA INNOVATION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY- IQTISODIY KOMPONENTLARI.....	212
Kurbanova Mehriniso, Masharipov Ma'sud	
HUDUDIIY ENERGETIKA TA'MINOTI TIZIMIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NEYRO- RAVSHAN EKONOMETRIK MODELARI: QASHQADARYO VILOYATI ELEKTR ENERGETIKA TIZIMIDAN DALILLAR	219
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MOLIVAVIY AXBOROT VA BUXGALTERIYA HISOB MEXANIZMLARI	224
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
AUTORSING XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	232
Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o'g'li	



MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TASNIFI	237
Erdonova Maxfuza Mardonovna	
KO'P QAVATLI BINOLARDA LIFT SHAXTASI KONSTRUKSIYASINING SEYSMIK VA DINAMIK YUKLARGA BIRGALIKDAGI TA'SIRINI TAHLIL QILISH	242
Boymirzayev Azizbek Asqarali o'g'li	
ULTRATOVUSH DIAGNOSTIKA ROBOTI UCHUN AVTOMATIK GEL SIQISH TIZIMINI KONSTRUKTIV-TEKNOLOGIK LOYIHALASH VA VIRTUAL TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	249
Nodirbek Ruziyev, Zafar Botirovich Jurayev	
SANOAT AVTOMATLASHTIRISH TIZIMLARINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO'NALISHLARI VA ULARNING TAHLILI	255
Sayilxonov Xudoyor Narzullo o'g'li	
SUV RESURSLARI CHEKLANGAN SHAROITDA HUDUDIY IXTISOSLASHUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	263
Sodiqova Nigora Turayevna	
CREDIT PORTFOLIO IN COMMERCIAL BANKS AS A FACTOR IN IMPROVING ASSET QUALITY AND STABILITY	270
Baymuratova Zina Aqilbekovna	
ВЛИЯНИЕ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ АКТИВНОСТЬ.....	274
Хакимов Улугбек Абдуллаевич	
KATTA TIL MODELLARI YORDAMIDA DASTURIY TEST SSENARIYLARINI GENERATSIYALASHDA GALLYUTSINATSIYALAR MUAMMOSI VA ULARNI KAMAYTIRISH YONDASHUVLARI.....	280
Matkarimov Bobirjon Erkinboyevich	
INVESTISIYALARNI JALB ETISHDA INVESTISIYA SIYOSATI VA INVESTISIYA MUHITI	286
Sodiqov Maqsudjon Abdolimovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	292
Djurayeva Munira Sadilloevna	
QARSHI SHAHRIDA KO'P QAVATLI TURAR-JOY BINOLARINI ISITISHDA IOT TIZIMINI QO'LLASH	298
Raupova O.I.	
ФИНАНСОВЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ АГРОБИЗНЕСА, РЕФОРМА ИНСТИТУТА НЕПЛАТЁЖЕСПОСОБНОСТИ И ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОЙ БЕДНОСТИ: УЗБЕКИСТАН, 2015–2025 ГОДЫ.....	303
Адилов Шерзот Шамильевич	
FERMER XO'JALIKLARINING INTENSIV RIVOJLANISHIDA INVESTITSION QARORLARNI QABUL QILISHNING KO'P MEZONLI VA RISKKA MOS MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	312
Rashidov Baxadir Yusupovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA AHOLIGA KO'RSATILADIGAN XIZMATLARNING ZAMONAVIY HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	317
Rajabov Saidrasul Xalil o'g'li	
BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODEL VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR	323
Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li	



BUYUK BRITANIYA STARTAP EKOTIZIMINI BOSHQARISH MODELI VA O'ZBEKISTON UCHUN SABOQLAR

Sodiqov Elmurod Shomurod o'g'li

Toshkent xalqaro Vestminster universiteti
"Menejment kafedrası" PhD tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqola Buyuk Britaniyaning startap ekotizimini boshqarish modelini institutsional, moliyaviy va tartibga solish nuqtai nazaridan tahlil qilib, O'zbekiston uchun amaliy saboqlarni aniqlaydi. Tadqiqot Isenberg (2010), North (1990), Mazzucato (2013), Stam (2015) va Dolowitz va Marsh (1996, 2000)ning siyosat transferi nazariyasiga asoslanadi. Buyuk Britaniya ekotizimi yagona markaziy agentlik o'rniga ko'p institutli, tarmoqlangan tuzilma (DSIT, UKRI, Britaniya biznes banki, FCA) orqali boshqariladi; EIS/SEIS/VCT soliq sxemalari va FCA/MHRA regulyator sandboxlari xususiy investitsiyani rag'batlantiradi. Shu bilan birga, model scale-up kapitali tanqisligi, IPO bozoridan chiqib ketish, London markazlashuvi va Tech Nationning 2023-yildagi qulashi kabi tizimli zaifliklarga ega. Buyuk Britaniya va O'zbekiston 12 yo'nalishda qiyoslanadi. 2026-yil avgustda qabul qilingan «Enterprise Uzbekistan» qonunida ingliz-Uels umumiy huquqi tamoyillari joriy etiladi — siyosat transferining real vaqtdagi dalili sifatida markaziy o'rin tutadi. Maqola 9 tavsiya va 12 bosqichli boshqaruv modelini taklif etadi.

Kalit so'zlar: startap ekotizimi, Buyuk Britaniya, umumiy huquq, soliq rag'batlantirish, regulyator sandbox, siyosat transferi, O'zbekiston.

Аннотация: В статье анализируется модель управления стартап-экосистемой Великобритании и определяются практические уроки для Узбекистана. Исследование опирается на Айзенберга (2010), Норта (1990), Маццукато (2013), Стама (2015) и теорию трансфера политики Dolowitz и Marsh (1996, 2000). Экосистема Великобритании управляется через сетевую структуру институтов (DSIT, UKRI, British Business Bank, FCA), а не единое агентство; налоговые схемы EIS/SEIS/VCT и регуляторные песочницы FCA/MHRA стимулируют частные инвестиции. Модель уязвима из-за дефицита капитала для роста (scale-up), оттока IPO, концентрации в Лондоне и краха Tech Nation в 2023 году. Великобритания и Узбекистан сравниваются по 12 направлениям. Закон «Enterprise Uzbekistan» (август 2026), вводящий принципы английского общего права, рассматривается как практическое свидетельство трансфера политики. Статья предлагает 9 рекомендаций и 12-этапную модель управления.

Ключевые слова: стартап-экосистема, Великобритания, общее право, налоговое стимулирование, регуляторная песочница, трансфер политики, Узбекистан.

Abstract: This article analyzes the United Kingdom's startup ecosystem management model and identifies practical lessons for Uzbekistan, drawing on Isenberg (2010), North (1990), Mazzucato (2013), Stam (2015), and Dolowitz and Marsh's (1996, 2000) policy transfer theory. The UK ecosystem is governed through a networked structure of institutions (DSIT, UKRI, British Business Bank, FCA) rather than a single agency; EIS/SEIS/VCT tax schemes and FCA/MHRA regulatory sandboxes stimulate private investment. Yet the model carries systemic vulnerabilities: scale-up capital scarcity, IPO market attrition, London's geographic concentration, and Tech Nation's 2023 collapse. The UK and Uzbek ecosystems are compared across 12 dimensions. Uzbekistan's August 2026 "Enterprise Uzbekistan" law, which introduces English and Welsh common-law principles, is treated as real-time evidence of policy transfer. The article proposes nine recommendations and a 12-stage governance model.

Keywords: startup ecosystem, United Kingdom, common law, tax incentives, regulatory sandbox, policy transfer, Uzbekistan.

KIRISH

Mazkur tadqiqot seriyasi doirasida avval AQSh, Estoniya, Isroil va Singapurning startap ekotizimlarini rivojlantirish tajribasi tahlil qilingan edi (Abduraupov & Sodiqov, 2026a–d). Seriyaning beshinchi maqolasi esa Buyuk Britaniya tajribasiga bag'ishlanadi. StartupBlink Global Startup Ecosystem Index 2026 ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniya 17 921 ta startap va 12,52 mlrd AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirish ko'rsatkichi bilan dunyoda 2-o'rinni egallaydi. London esa shaharlar reytingida 3-o'rinda qayd etilgan (StartupBlink, 2026a, 2026b).

Buyuk Britaniya tajribasi seriyada o'rganilgan boshqa mamlakatlardan, avvalo, startap ekotizimini

boshqarish modeli bilan ajralib turadi. Bu yerda ekotizim faoliyati yagona markaziy agentlik tomonidan emas, balki vazifalari o'zaro bog'langan ko'plab institutlar tarmog'i orqali muvofiqlashtiriladi. Bunday model bir tomondan tizimning moslashuvchanligini ta'minlasa, ikkinchi tomondan institutsional murakkablik va muvofiqlashtirish bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu jihatdan Buyuk Britaniya tajribasi moslashuvchanlik va boshqaruv murakkabligi o'rtasidagi muvozanatni o'rganish uchun alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 19-avgustdagi "Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi to'g'risida"gi O'RQ-1169-son¹ Konstitutsiyaviy Qonuni bilan yanada ortadi. Mazkur qonun ingliz-Uels umumiy huquqi hamda adolat (equity) tamoyillarini O'zbekiston huquqiy tizimiga bevosita joriy etishni nazarda tutadi (Gazeta.uz, 2026). Bu esa Buyuk Britaniyada shakllangan institutsional va huquqiy mexanizmlarni o'rganish, ularning O'zbekiston sharoitida qay darajada qo'llanishi mumkinligini baholashni ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi Buyuk Britaniya startap ekotizimini institutsional, moliyaviy va tartibga solish jihatlaridan tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi savollarga javob izlanadi: TS1 — Buyuk Britaniya startap ekotizimining boshqaruv arxitekturasini qanday tuzilgan? TS2 — undagi qaysi amaliyotlar O'zbekiston sharoitiga ko'chirish va moslashtirish uchun eng yuqori salohiyatga ega? TS3 — Buyuk Britaniya tajribasidan qanday ogohlantiruvchi saboqlar chiqarish mumkin? TS4 — ushbu tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston uchun qanday bosqichma-bosqich model taklif etish mumkin?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Isenberg (2010) tadbirkorlik ekotizimini olti domenga (siyosat, moliya, madaniyat, tashkilotlar, inson kapitali, bozorlar) ajratadi; Buyuk Britaniya bu nazariyaning muhim nozik jihatini ochib beradi: barcha domenlar bir xil institutsional shaklda bo'lishi shart emas. North (1990)ning institutsional nazariyasi va «yo'l bog'liqligi» (path dependency) konsepsiyasi Buyuk Britaniyaning yuz yillar davomida shakllangan umumiy huquq tizimini tushuntiradi. Mazzucato (2013)ning «tadbirkor davlat» konsepsiyasi UKRI va Britaniya biznes banki orqali davlatning faol, xavf oluvchi rolini asoslaydi.

Etzkowitz va Leydesdorff (2000)ning Triple Helix va Carayannis va Campbell (2009)ning Quadruple Helix modellari «Oltin uchburchak» (Oksford–Kembrij–London) universitet-sanoat-davlat integratsiyasini izohlaydi; Lundvall (1992)ning milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasi DSIT–UKRI–Britaniya biznes banki ko'p qatlamli tarmog'ini tavsiflaydi. Acs va boshqalar (2009)ning bilim spilloveri nazariyasi universitet spinoutlarining o'sishini (2024-yilda £2,6 mlrd) izohlaydi. Stam (2015)ning «kirish-chiqish» ekotizim modeli tadqiqotning markaziy tahliliy prizmalaridan biri: Buyuk Britaniya yuqori «kirish» resurslariga (kuchli universitetlar, chuqur R&D moliyalashtiruvi) ega bo'lsa-da, «chiqish» bosqichida (scale-up moliyalashtiruv, IPO) tizimli zaifliklarni namoyon etadi. Bu «kirish-chiqish nomutanosibligi» O'zbekiston uchun muhim nazariy ogohlantirish beradi. Dolowitz va Marsh (1996, 2000)ning siyosat transferi nazariyasi tadqiqotning ikkinchi markaziy prizmasi «Enterprise Uzbekistan» qonuni misolida amaliyotda kuzatiladi: bu holat nazariy qiyosiy tahlilning tadqiqot jarayonining o'zida amalga oshayotgan «jonli laboratoriya»ni yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat tadqiqoti dizayniga qiyosiy keys-stadi, tizimli adabiyotlar tahlili va institutsional tahlilga asoslanadi, seriyaning avvalgi maqolalari bilan bir xil metodologik asosga ega. Ma'lumotlar uch toifadan to'plandi: rasmiy statistika (GOV.UK, HMRC, Ofcom, UKRI, Britaniya biznes banki), akademik/tadqiqot dalillari (Royal Society, Social Market Foundation, Independent Review of University Spin-out Companies) va sanoat reytinglari (StartupBlink, Startup Genome, Dealroom, Beahurst, PitchBook). Qiyosiy tahlil 8 mezon (institutsional moslik, moliyaviy imkoniyat, tartibga solish moslashuvchanligi, inson kapitali, bozor moslik, madaniy moslik, soddalik, ta'sir) bo'yicha 1–5 shkalada baholanadi (1,0–2,4 past, 2,5–3,4 o'rta, 3,5–5,0 yuqori). Tadqiqot cheklovlari: «yakkashox» kompaniyalar soni bo'yicha manbalar farq qiladi (Britaniya biznes banki 39, Beahurst 41, NatWest 32); London global reytinglarda metodologiyaga qarab 3-, 4- yoki 13-o'rinlarda ko'rsatiladi; ikki mamlakat o'rtasidagi keskin strukturaviy farqlar (aholi soni, YaIM, institutsional yosh 350+ yil vs 6 yil) natijalarning nisbiy xarakterini anglatadi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-8420999>



TAHLIL VA NATIJALAR

Buyuk Britaniya ekotizimi ko'p institutli, tarmoqlangan tuzilmaga asoslanadi. Markaziy o'rinni 2023-yilda tashkil etilgan Fan, innovatsiya va texnologiyalar vazirligi (DSIT) egallaydi (GOV.UK, 2026a). DSIT qoshidagi UKRI 2025–2026-yilida 8,8 mlrd funt sterling byudjetga ega (UKRI, 2025), to'qqizta kengashni, jumladan, Innovate UKni o'z ichiga oladi. Davlat egaligidagi, operatsion mustaqil Britaniya biznes banki 2024/25-yilda kichik bizneslar uchun 6,8 mlrd funt moliyalashtirishni qo'llab-quvvatladi (84% qo'llab-quvvatlangan biznes London tashqarisida), umumiy moliyaviy salohiyatini 25,6 mlrd funtgacha oshirdi (British Business Bank, 2025a–c). Investitsiyalar bo'yicha idora yirik strategik investitsiyalar uchun «yagona eshik» vazifasini bajaradi (GOV.UK, 2026b).

EIS individual investorlarga 30% daromad solig'i imtiyozini beradi; 2024–25-yilda \$1 575 mln jalb qilindi (3 735 kompaniya). SEIS erta bosqich startaplariga 50% imtiyoz beradi (\$276 mln, 2 430 kompaniya). VCT orqali \$881 mln jalb qilindi (HMRC/GOV.UK, 2026a). 2026-yil aprel islohoti EMI chegarasini £30 mln dan £120 mln gacha, EIS/VCT umrbod chegarasini £12 mln dan £24 mln gacha oshirdi. R&D soliq imtiyozi 2023–24-yilda jami £7,6 mlrdni tashkil etdi (HMRC/GOV.UK, 2025a). Tartibga solishda FCA «Innovation Hub» va 2024-yilda ishga tushirilgan FCA AI Lab (NVIDIA bilan hamkorlikda, 23 kompaniya) hamda MHRA AI Airlock (11 innovator, £3,6 mln) fintech va sog'liqni saqlash startaplariga real bozor sharoitida sinov imkonini beradi (FCA, 2026a–b; GOV.UK, 2026e).

VC bozori 2021-yilda cho'qqiga chiqqan (£20,6 mlrd), so'ngra izchil pasaygan: 2024-yilda £10,8 mlrd (2 048 bitim) YalMga nisbatan 0,68% (AQSh 0,73%) (British Business Bank, 2025d). Universitet spinoutlari bozor investitsiyasining 17,2% (2020: 8,5%), AI sektori bitimlarning 20,5%ini tashkil etadi. «Yakkashox» soni bo'yicha manbalar farq qiladi (32–41 ta); yangi yakkashoxlar soni 2021–2024 davrida 11 dan 3 taga tushgan (Beauhurst, 2025). Inkubatsiya infratuzilmasi xilma-xil: Entrepreneur First (600+ kompaniya, \$11 mlrd portfel), Techstars London, Founders Factory, Seedcamp (550+ kompaniya, jumladan, Revolut va Wise), Barclays Eagle Labs (43 markaz, 20 000 biznes, £5 mlrd jalb qilingan). Innovator Founder Visa 3 yillik ruxsatnoma beradi; Global Talent Visa orqali 2014–2024-yillarda 5 249 mutaxassis kelgan (UKTN, 2024).

«Oltin uchburchak» (Oksford, Kembrij, London)dagi 10 universitet barcha spinoutlarning 53%ini tashkil etadi; 2024-yilda spinoutlar £2,6 mlrd jalb qildi (+38%) (Royal Academy of Engineering & Beauhurst, 2025). 2023-yildagi Independent Review of University Spin-out Companies standartlashtirilgan ulush me'yorlarini (IP-yengil 10%, IP-intensiv ~25%) joriy etdi (GOV.UK, 2023). London 2026-yilda Yevropada 1-, global miqyosda 4-o'rinni egalladi (Dealroom, 2026a); Buyuk Britaniya 2024-yildan Horizon Europe dasturiga qayta a'zo (Universities UK, 2026). Ofcom ma'lumoticha, uy xo'jaliklarining 87% gigabit internetga, 97% 5Gga ega; Open Banking tizimi 16,5 mln foydalanuvchi ulanishiga ega (Ofcom, 2025; Open Banking Limited, 2026).

O'zbekiston startap ekotizimi 2019-yildan IT Park Uzbekistan (14 hududiy filial, 6 xorijiy vakolatxona) atrofida shakllanmoqda. Investitsiya hajmi 2020–2025-yillarda \$0,3 mln dan \$329 mln ga o'sdi (IT Park Uzbekistan, 2024; UzDaily, 2026a). Uzum kompaniyasi 2024-yilda mamlakatning birinchi yakkashoxiga aylandi (baholanishi \$1,16 mlrd), 2026-yil martda Ummon suveren fondi yetakchiligidagi \$131,5 mln raund orqali baholanishi \$2,3 mlrdga (yetti oyda +53%) yetdi (Bloomberg, 2026). StartupBlink reytingida O'zbekiston 2023–2026-yillarda 111-o'rindan 79-o'ringa ko'tarilib, «Yilning mamlakati 2026» unvonini oldi (UzDaily, 2026b). Eng muhim institutsional voqea 2026-yil 21-avgustda imzolangan, 2027-yil 21-yanvardan kuchga kiruvchi «Enterprise Uzbekistan» qonuni: u ingliz-Uels umumiy huquqi va adolat tamoyillarini, ingliz tilini rasmiy ish tili sifatida joriy etadi, 2100-yilgacha amal qiladi, soliq/bojxona imtiyozlari va 12 oylik regulyator sandboxni taqdim etadi, Toshkent xalqaro tijorat sudini tashkil etadi (Gazeta.uz; Kursiv Media, 2026). Bu siyosat transferi nazariyasining amaliyotda real vaqtda kuzatilishidir.

Quyidagi 1-jadvalda Buyuk Britaniya va O'zbekiston 12 yo'nalish bo'yicha qiyoslanadi; farqlar tasodifiy emas, balki institutsional yosh (350+ yil vs 6 yil), YalM va geografik-strategik joylashuv farqi bilan izohlanadi (1-jadval).

1-jadval. Buyuk Britaniya va O'zbekiston: qiyosiy tahlil²

№	Yo'nalish	Buyuk Britaniya	O'zbekiston	Qiyosiy tahlil
1	Davlat koordinatsiyasi	Ko'p institutli tarmoq (DSIT, UKRI, FCA)	IT Park atrofida markazlashgan	—
2	Tartibga solish/soliq	EIS/SEIS/VCT, FCA/MHRA sandbox	IT Viza, PF-357 sandbox, Enterprise UZ	Yuqori (3,88)
3	Venchur kapital (2024/25)	£10,8 mlrd (2 048 bitim)	\$329 mln (2025)	~30 barobar farq
4	Davlat moliyalashtiruv	UKRI £8,8 mlrd/yil, BBB £25,6 mlrd	IT Park Ventures \$30 mln	O'rta (3,13)

2 Manba: Muallif ishlanmasi.

№	Yo'nalish	Buyuk Britaniya	O'zbekiston	Qiyosiy tahlil
5	Xususiy investitsiya (soliq)	EIS £1 575 mln, SEIS £276 mln	Yagona korporativ VC (UZCARD)	Yuqori (3,88)
6	Inkubatorlar/akseleratorlar	Entrepreneur First, Techstars, Eagle Labs (43)	IT Park inkubatorlari, 14 filial	O'rta (3,00)
7	Xorijiy iqtidor (viza)	Global Talent Visa (5 249, 2014–24)	IT Viza yangi, sodda	Yuqori (3,50)
8	Universitetlar/spinout	«Oltin uchburchak», £2,6 mlrd (2024)	TTO tizimi endi rivojlanmoqda	O'rta (3,13)
9	Raqamli infratuzilma	87% gigabit, Open Banking (16,5 mln)	300+ xizmat onlaylashtirilgan	O'rta (2,63)
10	Chiqish (exit) muhiti	2025: 23 IPO, £2,1 mlrd; Arm/CRH AQShga ko'chdi	IPO bozori mavjud emas	Past (1,75)
11	Xalqaro reyting (StartupBlink)	2-o'rin (2026)	79-o'rin (2026, 111-dan ko'tarilgan)	—
12	Huquqiy-institutsional transfer	(manba model)	Enterprise Uzbekistan (2026) orqali amalga oshirilmoqda	Yuqori (4,25)

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, eng yuqori ko'chiriladigan amaliyot umumiy huquq asosidagi maxsus iqtisodiy-huquqiy zona modeli (4,25 ball) nazariy xulosa emas, balki «Enterprise Uzbekistan» qonuni orqali allaqachon amalga oshirilayotgan real siyosat. SEIS/EIS uslubidagi soliq rag'batlantirish va FCA/MHRA uslubidagi sandbox kengaytmasi ham yuqori baholanadi (3,88), chunki O'zbekistonda PF-357 farmoni orqali qisman institutsional asos mavjud. Eng past baholangan amaliyotlar Mansion House Compact uslubidagi pensiya jamg'armasi VC moliyalashtirish va FCA Listing Rules uslubidagi IPO islohoti (ikkalasi ham 1,75) O'zbekistonning hozirgi moliyaviy salohiyatidan ancha yuqori talab qiladi.

Olti omil Buyuk Britaniya modelini «nusxa ko'chirish» emas, «tanlab moslashtirish» strategiyasini talab qilishini ko'rsatadi. (1) Tech Nationning 2023-yildagi qulashi davlat grantiga to'liq bog'liq agentlik modelining institutsional beqarorligi (12 mln funtlik grant Barclaysga o'tkazilgach, tashkilot yopildi) IT Park kabi institutlar barqaror, ko'p yillik mandat asosida ishlashi kerakligini ko'rsatadi (TechCrunch, 2023). (2) Brexit uzoq muddatda savdo intensivligini 15%ga, potentsial YalMni 4%ga kamaytirdi (OBR, 2020, 2022); xalqaro integratsiya qarorlari oldindan hisoblanishi zarur. (3) Scale-up kapitali tanqisligi va IPO bozoridan chiqib ketish (Arm, CRH, Flutter AQSh birjalariga ko'chgan) O'zbekiston ekotizimini loyihalashda kelajakdagi chiqish mexanizmlarini boshidanoq hisobga olishi kerak. (4) Londonning geografik markazlashuvi (VC investitsiyasining 61,2%i, investorlarning 61%i bir soatlik masofadagi kompaniyalarga sarmoya kiritadi) O'zbekiston hududlararo raqamli aloqadorlikka e'tibor qaratishi lozim. (5) Mansion House Compact/Accord sekin amalga oshmoqda (majburiyatning atigi 0,6%i xususiy kapitalga yo'naltirilgan); pensiya-asoslangan VC modelini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish real emas. (6) Londonning yuqori operatsion xarajatlari O'zbekistonning past xarajat ustunligi strategik jihatdan saqlanishi kerak.

Natijalar Isenberg (2010) nazariyasining muhim nozik jihatini ochib beradi: ekotizim domenlari bir xil institutsional shaklda bo'lishi shart emas; Buyuk Britaniyaning tarmoqlangan modeli Singapur yoki Isroilning markazlashgan modelidan tubdan farq qiladi. Stam (2015)ning «kirish-chiqish» modeli nuqtai nazaridan Buyuk Britaniya paradoksal holat namoyon etadi: yuqori kirish resurslariga ega bo'lsa-da, chiqish bosqichida tizimli zaiflik ko'rsatadi; bu O'zbekiston uchun ekotizim rivojlanishining barcha bosqichlarini muvozanatli rivojlantirish zarurligini anglatadi. Eng muhim empirik topilma «Enterprise Uzbekistan» qonuni tadqiqot jarayonining o'zida qabul qilingani, bu siyosat transferi nazariyasi uchun noyob «jonli laboratoriya» yaratadi: odatda qiyosiy tahlili nazariy taklif sifatida qoladi, biroq bu holatda amaliy qaror tadqiqot bilan deyarli bir vaqtda sodir bo'lmoqda; bu akademik tadqiqotlar oldiga institutsional islohotlarni real vaqtda kuzatib borish vazifasini qo'yadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, eng yuqori ko'chiriladigan amaliyotlar O'zbekistonda allaqachon institutsional «langar» mavjud sohalarda joylashgan (North, 1990ning yo'l bog'liqligi kontseptsiyasiga mos); shu bilan birga, «nimani ko'chirmaslik kerak» savoli «nimani ko'chirish kerak» savoli bilan teng darajada muhim (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston uchun tavsiyalar³

№	Tavsiya	Mas'ul institut	Muddat
1	«Enterprise Uzbekistan» markazini institutsional jihatdan mustahkamlash: barqaror ko'p yillik mandat, shaffof monitoring, DIFC/ADGM va ADGM tajribasidan bilim almashish	Enterprise Uzbekistan, Adliya vazirligi	1–2 y.
2	SEIS uslubidagi bosqichma-bosqich individual investor soliq imtiyozini (erta bosqich uchun yuqoriroq, keyingi bosqich uchun pastroq stavka) joriy etish	Moliya vazirligi, Soliq qo'mitasi	1–2 y.
3	«1 million dasturchi» dasturini AI ko'nikmalar yo'nalishi bilan integratsiya qilish, korporativ sheriklar (Google, Microsoft uslubida) jalb etish	Raqamli texnologiyalar vazirligi, IT Park	1–2 y.
4	Britaniya biznes banki uslubidagi milliy startup rivojlantirish institutini (IT Park Ventures negizida) kuchaytirish va mintaqaviy dasturlarga alohida oyna ochish	Moliya vazirligi, IT Park Ventures	3–5 y.
5	Golden Triangle uslubidagi universitet-innovatsiya klasterini (TTO tarmog'i, standartlashtirilgan spinout ulush me'yorlari) yetakchi universitetlarda rivojlantirish	OTM va IV, Intellektual mulk agentligi	3–5 y.
6	Innovator Founder Visa uslubida IT Vizani takomillashtirish: tasdiqlovchi tashkilotlar tizimini joriy etish, aniq mezonlar belgilash	IIV, Investitsiyalar vazirligi	1–2 y.
7	Mintaqaviy kapital bozorini rivojlantirish va kelajakdagi chiqish (exit) infratuzilmasini mintaqaviy/xalqaro birjalar bilan hamkorlikni boshidanoq loyihalashtirish	Moliya vazirligi, Markaziy bank	5–10 y.
8	Barclays Eagle Labs uslubidagi bank-korporativ innovatsiya sherikligini (tijorat banklari bilan) institutsionallashtirish	Markaziy bank, tijorat banklari	3–5 y.
9	Open Banking uslubidagi milliy raqamli moliyaviy interoperabellik standartini joriy etish	Markaziy bank, Raqamli texnologiyalar vazirligi	5–10 y.

Buyuk Britaniya tajribasining eng moslashtirib ko'chirish mumkin bo'lgan elementlarini O'zbekistonning markazlashgan va IT Park atrofida shakllangan bazasi bilan uyg'unlashtiruvchi, ko'p institutli, biroq aniq muvofiqlashtirilgan boshqaruv tuzilmasi hamda huquqiy-institutsional ishonch mexanizmlariga asoslangan 12 bosqichli model taklif etiladi: (1) davlat strategik koordinatsiyasi — Prezident boshchiligidagi Kengash; (2) huquqiy-institutsional asos — «Enterprise Uzbekistan» tajribasini kengaytirish; (3) moliyalashtirish arxitekturasini — davlat va xususiy sektorning qo'shma investitsiyalari; (4) SEIS/EIS uslubidagi soliq rag'batlari; (5) sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan iqtidor va ta'lim tizimi; (6) tasdiqlovchi kengash orqali xorijiy iqtidorlarni jalb qilish; (7) universitet va innovatsiya klasterlari (TTO tarmog'i); (8) mintaqaviy inkubator va akseleratorlar tarmog'i; (9) banklar va innovatsion kompaniyalar o'rtasidagi korporativ hamkorlik; (10) ichki hamda mintaqaviy (Markaziy Osiyo) bozorlarga chiqish; (11) kapital bozori va biznesdan chiqish infratuzilmasi; (12) iqtisodiy natijalarni — YalMdagi ulush va yaratilgan ish o'rinlarini monitoring qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki: (1) Buyuk Britaniya ko'p institutli, tarmoqlangan tuzilmaga ega bo'lib, bu yuqori moslashuvchanlikni ta'minlaydi, ammo muvofiqlashtirish murakkabligi va institutsional beqarorlik xavfini ham keltirib chiqaradi; (2) eng moslashtirib ko'chiriladigan amaliyotlar — soliq rag'batlantirish sxemalari, sektor-maxsus sandboxlar va huquqiy-institutsional transfer modeli — O'zbekistonda allaqachon qisman institutsionallashtirilgan asosga ega; (3) Buyuk Britaniyaning tizimli zaifliklari (scale-up kapitali tanqisligi, IPO bozoridan chiqib ketish, London markazlashuvi, Tech Nation qulashi) O'zbekiston uchun muhim ogohlantiruvchi saboqlar beradi. Tadqiqotning ilmiy hissi siyosat transferi nazariyasi uchun noyob “jonli laboratoriya” dalilini taqdim etishda (“Enterprise Uzbekistan” misolida) va Isenberg (2010) hamda Stam (2015) modellarini markazlashmagan, ko'p institutli ekotizim holatiga tatbiq etishda.

Tadqiqot cheklovlari (3-bo'limda ko'rsatilgan) natijalarning nisbiy xarakterga ega ekanligini anglatadi. Kelgusi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar: “Enterprise Uzbekistan”ning birinchi 2–3 yillik amaliy natijalarini monitoring qiluvchi baholash tadqiqoti; O'zbek startup asoschilari va investorlar bilan sifat intervyulari; qiyosiy tahlil metodologiyasini boshqa umumiy huquq an'alariga ega mamlakatlar (Kanada, Avstraliya, Hindiston) tajribasiga qo'llash; hamda ushbu va ilgari nashr etilgan to'rt maqola natijalarini (Abduraupov & Sodiqov, 2026a-d) yagona qiyosiy-sintez tahlilida birlashtirib, dissertatsiyaning yakuniy bobi uchun kompleks strategiya ishlab chiqish.

3 Manba: Muallif ishlanmasi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Acs, Z. J., Audretsch, D. B., Braunerhjelm, P., & Carlsson, B. (2009). The knowledge spillover theory of entrepreneurship. *Small Business Economics*, 32(1), 15–30.
2. Association of British Insurers. (2025). Investment in unlisted equities hits £1.6bn under Mansion House Compact.
3. Astana Times. (2026). Central Asia emerges as world's fastest-growing startup region.
4. Beauhurst. (2025). UK unicorn companies.
5. Bloomberg. (2026). Oman-led funding round values Uzbek fintech Uzum at \$2.3 billion.
6. British Business Bank. (2025a). British Business Bank supports £6.8bn finance for smaller business 2024/25.
7. British Business Bank. (2025b). British Business Bank total financial capacity increased to £25.6bn.
8. British Business Bank. (2025c). British Business Bank commits £6.6bn to back innovation.
9. British Business Bank. (2025d). Small Business Equity Tracker 2025.
10. British Business Bank. (2025e). British Patient Capital central to scale up Britain.
11. Business Money. (2025). Barclays Eagle Labs marks 10 years of driving growth in the UK innovation economy.
12. Cambridge Enterprise. (2025). Cambridge leads in spinouts success in 2024.
13. Carayannis, E. G., & Campbell, D. F. J. (2009). 'Mode 3' and 'Quadruple Helix'. *International Journal of Technology Management*, 46(3–4), 201–234.
14. CBRE. (2025). Global Tech Talent Guidebook 2025.
15. Dealroom.co. (2026a). Global Tech Ecosystem Index 2026.
16. Dolowitz, D. P., & Marsh, D. (1996). Who learns what from whom. *Political Studies*, 44(2), 343–357.
17. Dolowitz, D. P., & Marsh, D. (2000). Learning from abroad. *Governance*, 13(1), 5–24.
18. Entrepreneur First. (2026). Investing in talent.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100